

“Qish-2022” jadvaliga o’tish munosabati bilan mavsumiy aviaqatnovlar vaqtincha to’xtatiladi

2022 5 Oktabr

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati qishki parvozlar jadvaliga o’tishi munosabati bilan Urganch – Milan – Toshkent, Urganch – Rim – Toshkent va Toshkent – Parij – Toshkent yo’nalishlari bo'yicha mavsumiy aviaqatnovlar vaqtincha to’xtatilishini ma'lum qiladi.

Italiya va Fransiyaga parvozlar tasdiqlangan jadvalga ko'ra yozgi parvozlar jadvali oxirigacha quyidagicha amalga oshiriladi:

- Urganch – Rim – Toshkent haftada bir marta – seshanba kunlari (25-oktabrgacha);
- Urganch – Milan – Toshkent haftada bir marta – juma kunlari (28-oktabrgacha);
- Toshkent – Parij – Toshkent haftasiga ikki marta – seshanba va juma kunlari (28-oktabrgacha).

“O’zbekiston havo yo’llari” dagi barcha yangiliklardan xabardor bo’ling

Telegram: t.me/uzbekistanairways